



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(7)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 210 sahifa,  
27-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

*Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician*

*Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician*

*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*

*Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor*

*Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)*

*Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)*

*Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)*

*Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)*

*Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)*

*Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)*

*Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor*

*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*

*Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor*

*Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)*

*Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor*

*Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor*

*Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service*

*Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor*

*Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)*

*Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor*

*Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics*

*Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor*

*Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region*

*Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun*

*Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences*

*Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor*

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Muqobil energiya manbalarida yarimo'tkazgichlar fizikasi: quyosh panellarining foydali ish koeffitsiyentini oshirish muammolari .....	10
<i>Abdullajonova Bashorat Olim qizi</i>	
Xavfsizlik tuyg'usining psixologik mazmuni .....	13
<i>Bahodirova Marhaboxon Tohirjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalari: kompetensiyaviy yondashuv asosida .....	17
<i>Boybo'riyeva Saodat O'ralovna</i>	
Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari .....	21
<i>Ergasheva Go'zal Ruzimurod qizi</i>	
Kurash sportida innovatsion mashg'ulot texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari .....	26
<i>Madumarov Jahongir Urinbayevich</i>	
O'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishda steam texnologiyalarining o'rni va roli .....	29
<i>Yo'ldoshev Mirjalol Qosim o'g'li</i>	
Sun'iy intellekt vositalarining bo'lajak o'qituvchilar diagnostik kompetentligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari .....	33
<i>Teshaboyev Akramjon Yuldashevich</i>	
O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi kommunikativ o'zaro ta'sir .....	39
<i>Turdibekova Risolat Shermatovna</i>	
6–7 yoshli bolalarni savodga tayyorlashda didaktik kartochkalar asosidagi leksik o'yinlarning ahamiyati ....	42
<i>Tursunova Durdona</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida zamonaviy ilmiy yondashuvlar: maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va sport natijalari .....	46
<i>Xalmirzayev Azizillo Nabijonovich</i>	
Veb-kvest" va "Til portfeli" texnologiyalarini bir butun integrativ model asosida o'quv mashg'ulotlarida qo'llanilishi .....	49
<i>Yusupova Muxabbat Anatolevna</i>	
Содержание личностно-ориентированного образования и его роль в процессе самостоятельной подготовки студентов .....	53
<i>Рысова Галия Байбулатовна</i>	
Improving the Methodology for Teaching Lexical and Grammatical Transformations in the Translation of Literary Texts .....	57
<i>Asadova Zebiniso Makhmudovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish mexanizmlari .....	62
<i>Beketov Nurseit Alijan o'g'li</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida boksni o'qitish metodikasini takomillashtirish.....	67
<i>Rustamova Zuhro Sanjar qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion yondashuv asosida o'qish darslari samaradorligini metodik takomillashtirishga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	71
<i>To'ychiyeva Zulfiyaxon Abdulxoliq qizi</i>	
Mehrli maktabda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali bolalarning ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmlari .....	76
<i>Tursunova Dildora Ziyadullayevna</i>	
Kasbiy fanlar integratsiyasiga asoslangan dasturiy ta'minot vositasida filologiya yo'nalishi talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi .....	79
<i>Yakubov Baxtiyor Baxriddin o'g'li</i>	
Ta'lim klasterlari faoliyatini avtomatlashtirish va monitoring qilish tizimini joriy etish .....	83
<i>M. Badalova</i>	



Нравственное воспитание студентов средствами русской классической литературы: современные педагогические подходы.....	86
<b>Родина Ирина Витальевна</b>	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining kasbiy identikligini shakllantirishda psixologik diagnostika va rivojlantiruvchi yondashuvlar .....	91
<b>Feruz Tohirova</b>	
Tarbiya fanini o'qitish jarayonida xalq pedagogikasidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari .....	99
<b>Islomova Mushtaribonu Akram qizi</b>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida multimedia vositalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari .....	104
<b>Nafisa Tuxtasinova</b>	
Shaxsiy kreativ kompetentlikni rivojlantirishning metodik imkoniyatlari .....	108
<b>To'xtasinov Dadaxon Farxodovich, Nafisa Tuxtasinova</b>	
Zamonaviy ta'lim oluvchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashning yangicha yondashuvi .....	113
<b>Xudayberdiev Inom Xasanovich</b>	
Yoshlar oilalarda ekologik madaniyati rivojlanishida turar joy muhiti va gender yondashuvlarining ahamiyati .....	117
<b>Yusupova Muhabbatxon Abdulajon qizi</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida O'simliklar mavzusini o'rgatish metodikasi .....	122
<b>Normurotova Aziza Karim qizi, Fattoyeva O'g'iloy Ashurqulovna</b>	
Inklyuziv ta'lim o'quvchilarining yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda robototexnika asosidagi assistiv texnologiyalar - "Power band" va "Quvvat qo'lqop" samaradorligi.....	127
<b>Alimardanova Sitora Ikrom qizi, To'rayev Rasul Nortoijiyevich</b>	
Yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda sport mashg'ulotlarining innovatsion ahamiyati .....	133
<b>Aminov Botir Umidovich</b>	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish .....	138
<b>Saydanova Dilafuz Sadirdinovna</b>	
Ilmiy-tadqiqotchi ayollarda akademik o'zlik shakllanishi: O'zbekiston sharoitida motivatsion omillar va ijtimoiy-pedagogik aralashuv zarurati .....	142
<b>Egamqulova Iroda Safar qizi</b>	
Texnika oliygohlarida nogironligi mavjud talabalarning ilmiy kompetentligini rivojlantirish uchun "Adaptiv tadqiqot" interaktiv metodini ishlab chiqish.....	148
<b>Gimayeva Liliya Maskurovna</b>	
Maktab boshqaruvida raqamli monitoring va tahlil tizimlaridan foydalanishning pedagogik samaradorligi...	153
<b>Imamaliyev Ulugbek Turapbayevich</b>	
Onlayn qimor o'yinlariga tobe bo'lgan harbiy xizmatchilar bilan psixokorreksiya ishlarini olib borish tartibi..	157
<b>Olimov Azamat Qahramon o'g'li</b>	
Rusiyzabon o'quvchilarning o'zbekcha bog'lanishli nutqini o'stirishda mashqlarning o'rni .....	163
<b>Salisheva Zilola Ismoilovna</b>	
Xorijiy mamlakatlar tajribasida raqamli ta'lim va raqamli savodxonlikni rivojlantirishning nazariy asoslari....	169
<b>Toshpulatova Niyoxon Shavkatjon qizi</b>	
Ko'p madaniyatli kompetensiyani rivojlantirish modelini amalga oshirishning tashkiliy va pedagogik mexanizmlari va kutilgan natijalari .....	174
<b>Vasilyeva Elmira Raisovna</b>	
The Specifics of the Formation of Systems Thinking in Technical Education, Methods and Means of Development.....	178
<b>Yusupova Liliya Fanovna</b>	
Individual yondashuv asosida ko'zi ojiz o'quvchilar uchun individual rivojlanish xaritasini ishlab chiqish metodikasi.....	183
<b>Abdullayev Oybek Alisher o'g'li</b>	

Yaqin masofalarga yugurishda o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish usullari.....	190
<a href="#">Abduqahhorov Nuriddin Xabibulloyevich</a>	
Darslik yozish mas'uliyati.....	194
<a href="#">Ahmadova Mahbuba Shavkat qizi</a>	
Mobil ta'lim texnologiyalari vositalari yordamida darslarni tashkil etish metodikasini takomillashtirish .....	198
<a href="#">Mamasoliyev Akmaljon Azizjon o'g'li</a>	
Yengil atletika qisqa masofaga yugurish turini o'rgatishda bosqichma-bosqich tayyorlash metodikasi .....	202
<a href="#">Omonov Shohrux Orzimurot o'g'li</a>	
Abdulla Avloniyning o'zbek tamaddunidagi o'rni xususida ba'zi mulohazalar .....	206
<a href="#">Tasbolatova Yeliza Yesey qizi</a>	

# BO'LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARINING NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Saydanova Dilafruz Sadirdinovna

Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Nutq madaniyatining asosiy xususiyati uni ilmiy, sarmazmun, aniq-ravshan, ravon, to'g'ri, ta'sirli, badiiy, mantiqiy, jarangdor, jozibali bayon etishdan iborat. Buning uchun nutq, avvalo, adabiy til qonun-qoidalariga to'liq javob berishi lozim. Ushbu maqolada til va nutq hodisalari, bo'lajak o'qituvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishda egallashi kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalar haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** til, nutq, ong, paradigma, transformatsiya, madaniyat, nutq texnikasi, oppozitsiya, fikr ifodalash shakllari, og'zaki nutq, matn, yozma nutq shakllari.

**Abstract:** The main feature of speech culture is to express it scientifically, meaningfully, clearly, fluently, accurately, impressively, artistically, logically, resonantly, attractively. For this, the speech should first of all fully meet the rules of the literary language. This article provides information about language and speech phenomena, knowledge and skills that future teachers should acquire in the development of speech culture.

**Key words:** Language, speech, consciousness, paradigm, transformation, culture, speech technique, opposition, forms of expression, oral speech, text, forms of written speech.

**Аннотация:** Основной особенностью речевой культуры является ее выражение научно, содержательно, ясно, бегло, точно, выразительно, художественно, логично, звучно, привлекательно. Для этого речь должна прежде всего полностью соответствовать правилам литературного языка. В данной статье представлена информация о языке и речевых явлениях, знаниях и умениях, которые должны приобрести будущие учителя в процессе развития культуры речи.

**Ключевые слова:** язык, речь, сознание, парадигма, трансформация, культура, техника речи, оппозиция, формы выражения, устная речь, текст, формы письменной речи.

## KIRISH

Ma'lumki, inson tili mutlaq bir butunlikni tashkil qilmaydi. Aslida bu turli xil til tafovutlari majmui bo'lib, ularning yuzaga kelishi turli omillar ta'siridan kelib chiqadi. Inson tilini o'rganishning eng qiyin muammolaridan biri til va nutqni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish muammosidir.

Tildagi ayrim umumiy sxemani aniqlashga, ayrim umumiy qoidalar majmuini belgilashga urinishlar til va nutq muammosi nazariy jihatdan shakllanmasdan ancha oldin yuzaga kelgan. Har ikki tushuncha ham uzoq vaqt sinonim hisoblanib kelgan. Lekin insonni o'rganish, uning muloqotga kirishish qobiliyati bilan shug'ullanuvchi fanlarning rivojlanishi jarayonida bu tushunchalar sinonim sifatida qaralmaydigan bo'ldi. Lekin shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, til va nutqni bir-biridan butunlay ajratib bo'lmaydi.

Inson tili o'ta serqirra hodisa bo'lib, tilning asl mohiyatini tushunish uchun uni turli jihatlarda ko'rib chiqish, tashqi muhitdan qanday ta'sirlarga duch kelishi, til jamiyatda borliqning aynan qanday shakllari va funksiyalarini kasb etishini tushunish lozim. Tilning qaysi xususiyati uning asosiy mohiyatini belgilab berishini bilib olish zarur. Bunday xususiyat uning aloqa vositasi bo'lish vazifasidir.

Til yaralishi jarayonida kommunikativ funktsiyaning roli katta. Fonemadan va uning konkret real ko'rinishlaridan boshlanib, eng murakkab sintaktik konstruksiyalar bilan tugaydigan tilning moddiy vositalar tizimi tildan aloqa vositasi sifatida foydalanish jarayonida vujudga kelgan va shakllangan desak mublag'a bo'lmaydi. Tovush qobig'iga ega nutqning paydo bo'lishi yangi tafakkur turlarining, ayniqsa abstrakt tafakkurning paydo bo'lishi va rivojlanishiga yordam berdi, bu esa insoniyatga atrof-muhitning eng chuqur sirlarini ochishga kalit berdi.



Tilning aloqa vositasi sifatida ishlatilishi uning ichki sohasida kechadigan va shu funktsiya bilan shartlangan maxsus o'ziga xos jarayonlarni yuzaga keltiradi. Inson nutqi aloqa vositasi sifatida faqat muayyan sharoitlarda paydo bo'lishi mumkin, ulardan eng muhimi nutq egasining fiziologik xususiyati, ya'ni inson va uning hayoti va faoliyatining ijtimoiy tabiati sanaladi. Insondan tashqari tirik mavjudotlarning hech biri nutqqa ega emas. Bu esa, o'z navbatida, insonda nutqning paydo bo'lishi uchun fiziologik xususiyatning mavjudligini ko'rsatadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nutq orqali har bir insonning shaxsiy ongi hamda shaxsiy tajribasi o'z mushohadalari bilan cheklanib qolmasdan, til vositasida ijtimoiy tajriba natijalari bilan oziqlanadi va boyitiladi. Jamiyatda insonlarning kuzatishlari va bilimlari ma'lum bir shaxsning bilim zahirasiga aylanadi yoki aylanishi mumkin. Nutq haqida gapirar ekan, A. Leontev quyidagilarni yozadi: "Ertami, kechmi biz kun tartibiga nutq jarayonining umumiy nazariy shakllanishi to'g'risidagi masalani qo'yishga majbur bo'lamiz" [1].

A. Leontev bilan bir qatorda nutq lingvistikasining nazariy masalalarini o'z ichiga oluvchi tilshunoslikning psixolingvistika yo'nalishining boshqa vakillari ham mashhur psixologlar (L.S. Vigotskiy, N.I. Jinkin, A.R. Luriy) ishlariga tayanib, nutq jarayonining strukturasi va shaklini yoritib berishga katta hissa qo'shdilar. Ular nutq shakllanishining qolipi (modeli)ni yaratishar ekan, mazkur nutqiy jarayon inson omili bilan, xususan, uning tafakkur hamda kognitiv faoliyati bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlashmoqda.

Shu bilan birga, psixolingvistikaning tekshirish ob'ekti nutq sanalsa, uning predmetini inson nutq mexanizmining tuzilishi hamda ma'lum funktsiyaga kirishishi tashkil qiladi. Ongning asosiy vazifasi - borliqni anglash, uni aks ettirish. Bu vazifani til va nutq o'ziga xos tarzda bajaradi: ular borliqni aks ettirib, uni ifodalaydi. Nutq, til kabi, ularni mushtarak holda olsak, borliqni bildiruvchi in'ikosdir. Ammo nutq va til bir-biriga uzviy bog'liq bo'lsa-da, o'zaro farqlanadi. Ular bir butunning ikki xil jihatini ifodalaydi.

Til - insonning uzoq muddatli xotirasida saqlanadigan vositalar yig'indisi, belgilar tizimi. Axborotni uzoq muddatli xotiraga kiritish uchun kodlash mexanizmi ishlatiladi va axborotni chiqarish uchun butun dekodlash tizimi kerak. Nutq - bu jarayon, til orqali muloqot qilish faoliyati. Nutq harakatdagi tildir. U til bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida ham, tildan farqlanuvchi hodisa sifatida ham muayyan faoliyat - aloqa - va ma'lum mazmunning birligi bo'lib, borliqni bildiradi va anglatib aks ettiradi. Boshqacha aytganda, nutq - tafakkurni yuzaga olib chiquvchi muloqot vositasi bo'lib xizmat qiladi va voqelikni aks ettirishning umumlashgan shakli yoki tafakkurning mavjudlik shaklidir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish masalasi tizimli va kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatish, ilmiy manbalarni o'rganish hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, tilshunoslik, pedagogika, psixologiya va psixolingvistika sohalariga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, nutq madaniyatining tarkibiy qismlari, kommunikativ sifatleri hamda pedagogik faoliyatdagi o'zni yoritildi.

Tadqiqot davomida bo'lajak o'qituvchilarning og'zaki va yozma nutqiga qo'yiladigan talablar, adabiy til me'yorlariga rioya qilish, nutqning aniqligi, mantiqiyliqi, ravonligi va ta'sirchanligini rivojlantirish omillari tahlil qilindi. Olingan natijalar tahliliy va qiyosiy yondashuv asosida umumlashtirilib, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarida nutq madaniyatini shakllantirishga oid ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Nutq madaniyati insonning axloqini belgilovchi mezondir. Axloq fan sifatida o'rta asrlarda yuzaga keldi. Kishining odobi, eng avvalo, uning nutqida ko'rinadi. Nutq madaniyati - aytilishi zarur bo'lgan xabarlarini tinglovchiga hurmat qilgan holda yetkazish, tilning sofligini saqlash, adabiy me'yorlarga rioya qilish demakdir. So'zlarning ma'nolarini bilish, chunki ularni bilmaslik aniqlikning buzilishiga olib keladi; paronimlarni bilish, ulardan tovush yaqinliklariga e'tibor berish; tor muhitda ishlatiladigan dialektal so'zlarning ma'nolarini yaxshi anglagan holda nutqqa kiritish.

O'qituvchi o'z nutqidan keng foydalanadi. O'quvchilarga voqea-hodisalar, shaxslar haqida ma'lumot berishda bu katta ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilik kasbi bevosita ovoz xususiyatlari bilan bog'liq, yoqimli va jarangdor ovozga ega bo'lgan o'qituvchi o'z o'quvchilariga ovozining shiradorligi bilan ham ta'sir etadi. Bunday muvaffaqiyatga erishish uchun o'qituvchi o'z ovozining kuchini, yoqimlilikini bilishi zarur. O'qituvchining ovozida quyidagi xususiyatlar bo'lishi lozim:

- jarangdorlik (tovushning tozaligi va tembrning yorqinligi).

Asarlarning ayrim parchalari darsda hikoya qilib beriladi. Hikoya qilib berishda voqealar batafsil yoki ma'lum qisqartirishlar bilan bayon etilishi mumkin. Nutq texnikasi deyilganda nutqni tinglovchi yoki o'quvchiga yetkazishda qo'llanadigan vositalar tushuniladi. Nutq ikki xil ko'rinishda bo'lganda uning texnikasini ham ikki xil ko'rsatish mumkin:

1. Og'zaki nutq texnikasi.
2. Yozma nutq texnikasi.

Og'zaki nutq texnikasi tovush, bo'g'in, so'zlarni, uning shakllarini talaffuz etishni yaxshilash borasida nutq organlarini faollashtiruvchi mashqlarni anglatadi. Bunga ovozdan foydalanish tovush fazilati sifatida yorqin ifodalash qobiliyati bilan nutq faoliyatining ma'nosi, nutqda ishlatilayotgan so'z ma'nolarini bilish bilan bog'liq bo'ladi. Agar notiq o'zi fikr yuritmoqchi bo'lgan nutq predmetini yaxshi bilsa, unga mos so'zlar tanlasa va o'zi tanlagan so'zlarning ma'nolariga vazifalar yuklasa, nutqning aniq bo'lishi muqarrardir.

Talabalarning o'qituvchi sifatida takomil topishida o'qituvchining o'rnini hech qaysi vosita bosa olmaydi. Ayniqsa, talabalarning nutqiy malakalarini shakllantirishda, dunyoni anglatishda o'qituvchi nutqining ham o'ziga xos o'rni mavjud.

Nutq madaniyati - til normalarini egallamoq, ya'ni talaffuz, urg'u, so'z ishlatish, gap tuzish qonunlarini yaxshi bilmoq, shuningdek, tilning tasviriy vositalaridan har xil sharoitlarga mos va maqsadga muvofiq foydalana olish, ifodali o'qish va so'zlay olish madaniyatini egallash demakdir.

Nutq madaniyati deb yuritilayotgan hodisa bir qator murakkab, ammo mavjud til faktlari, ilmiy-amaliy tasavvurlar, aniq nutqiy jarayon ko'rinishlari va talablari bilan aloqadordir. Mana shunga ko'ra nutq madaniyati:

- tildagi mavjud til hodisasi nomi;
- nutq madaniyati talablariga javob beruvchi aniq nutqiy jarayonning, ya'ni aniq nutqiy ko'rinishning nomi;
- madaniy nutq va u haqida kishilar ongida mavjud bo'lgan aniq normativ tasavvurlarning nomi;
- tilshunoslikning ilmiy-tadqiqot ob'yekti bo'lgan nutq madaniyati va u haqida mavjud ilmiy tasavvurlarning, muammoning nomi;
- nutq madaniyati muammosini tadqiq qilish bilan shug'ullanadigan tilshunoslik sohasining nomi tarzida talqin qilish mumkin.

Nutq madaniyati amaliy jihatdan nutqning xilma-xil muammolarini tadqiq qiluvchi fan bo'lib, chiroyli nutq tuzishning qonuniyatlari, sirlari, til, til normalari, nutq, nutqning sifatlari, nutqiy uslublar, nutqda uchrashi mumkin bo'lgan kamchilik va xatolar, nutqiy asarlarning ko'rinishlari, nutqning talaffuziga doir muammolar yuzasidan bahs yuritadi. Nutq madaniyati asoslari ham fan sifatida o'z tekshirish ob'yekti va vazifalariga ega. Uning tekshirish predmeti til qurilishi, adabiy til normalari va nutqning kommunikativ fazilatlaridir.

Nutq madaniyatining birinchi bosqichi hisoblanmish nutqning to'g'riligi kommunikativ sifati uning adabiy til me'yorlariga muvofiqligi bilan belgilanadi. Adabiy til me'yorlarining tavsifiy tilshunoslik fanlariga oidligini inobatga olsak, hozirgi o'zbek adabiy tilining, aytaylik, normativ grammatikasi nutq madaniyatining asosiy zamini ekanligi ayon bo'ladi. Tilshunos B.N. Golovin ta'kidlaganidek, "Nutq madaniyati fan va o'quv predmeti sifatida til haqida normativ grammatikada bayon qilingan ma'lumotlarga suyansa-da, til materialiga yondashuv nuqtai nazaridan undan farq qiladi: tilning grammatik faktlari nutq madaniyatini, eng avvalo, me'yorlarga tobeligi - amal qilinishganligi, ikkilanilganligi va buzilganligi bilan qiziqtiradi. Grammatik shakl va kategoriyalarning grammatik tabiati emas, balki aynan me'yorlashish jihati nutq madaniyati uchun ahamiyatlidir."

O'zbek tilidagi mavjud grammatik shakl va kategoriyalarning adabiy me'yorlashganlarini nutq maqsadiga muvofiq tanlash asosida to'g'ri nutq tuzish nutq madaniyati uchun asosiy jihatdir. Nutq madaniyati fonetika va orfoepiya bilan ham chambarchas bog'liq.

Orfoepiya tovushlarning talaffuz xususiyatlarini o'rganadi, adabiy talaffuz me'yorlarini belgilab beradi. Nutqning to'g'riligini baholashda bu me'yorlar ham asos ekan, o'z-o'zidan nutq madaniyatining orfoepiya bilan bog'liqligi anglashiladi.

Fonetika tilning butun tovush sistemasi, uning qonuniyatlari, urg'u, intonatsiya, ohang, nutqning tovush qurilishiga daxldor boshqa ko'plab masalalarni o'rganadi. Nutq og'zaki va yozma shaklda mavjud bo'lsa-da, aslida yozma shakl ham "ichki" og'zaki nutq shaklida tuziladi va idrok etiladi. Tabiiyki, yozma nutqda og'zaki nutqdagi juda ko'plab fonetik-intonatsion xususiyatlar aks etmaydi (albatta, punktuatsiya ularning barini aslo ifodalay olmaydi).

Mashhur ingliz yozuvchisi Bernard Shouning "Nutqda ha deyishning 20 ellik usuli va yo'q deyishning besh yuz usuli bor, ammo buni yozishning esa faqat bitta usuli mavjud, xolos" degan gapini tilshunoslar ko'p eslashadi.



Atoqli o'zbek adibi Asqad Muxtor ham "Qalam so'zning soyasini chizadi" deganida yozma nutq imkoniyatining anchayin chegaralanganligini ta'kidlagan. Og'zaki nutq qurilishidagi ovozning tembr sifatleri, ton, urg'u, pauza, umuman, prosodik vositalar, nutq melodikasi (ohangi) kabilar ham kommunikativ, ham estetik ifoda uchun kerakli unsurlardir.

Olmon tilshunosi Karl Fossler tomoshabinlarni g'ayrioddiy tarzda benihoya mutaassir eta olgan bir aktyor haqida hikoya qilgan, bu san'atkor sahnada birdan yuzgacha bo'lgan sonlarni italyan tilida birin-ketin shunday prosodiya bilan talaffuz qilar ekanki, uning chiqishi tazarru qilayotgan qotilning nutqiday qabul qilinarkan: "Hech kim sonlar haqida o'ylamas, faqat sho'rlik jinoyatchiga titrab-qaqshab hamdardlik bildirardilar. Urg'u italyanча sonlarga ayriча ma'no bergan edi", deb ta'kidlagan K. Fossler.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytish mumkinki, nutq madaniyati har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilatleri, hattoki nuqsonleri ham muloqot jarayonining mahsulidir. Jamiyatdan ajralgan, muloqotda bo'lish qobiliyatini yo'qotgan odam o'zida individ sifatlerini saqlab qolishi mumkin, lekin u shaxs bo'la olmaydi. Demak, hamma faoliyat muloqotga bog'liq hisoblanadi.

Muloqot bu shaxslarning jamiyatda o'z o'rnini topishida, ma'lum bir faoliyat bilan shug'ullanishida muhim rol o'ynaydi. Alisher Navoiy muomala qiluvchi shaxsning mahorati haqida shunday deydi: "Shirin so'z ko'ngillar uchun bamisoli asaldir". Shuning uchun ham pedagog har on nutq madaniyatiga kuchli e'tibor berishi, o'zining psixologik, estetik, jismoniy, axloqiy jihatlarni namuna holatda namoyon etishi muhim.

Yuksak tuyg'u madaniyatiga ega bo'lgan pedagog talabalarning kayfiyati, noxushligini darrov fahmlaydi. Qo'pol, odobsiz gaplarga o'rin qoldirmaslik, talaba shaxsiga tegadigan qo'pol muomala qilish pedagogning faoliyatiga putur yetkazadi. Talaba ahvolini tushunish, unga hamdard bo'lish, madad berish kerak. Bu jarayon esa muloqot jarayonida olib boriladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. S.Inomho'jayev, A.Zunnunov. Ifodali o'qish asoslari. T., -O'qituvchill, 1978.
2. T.Qudratov. Nutq madaniyati asoslari. T., O'qituvchi, 1993.
3. Bahrombek Abduljalil o'g'li. Badiiy o'qish sirlari. Andijon, 1994 y.
4. N.Mahmudov. O'qituvchi nutqi madaniyati. T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(7)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.